

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI

VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Tarix fakulteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi

Kafedrasi

"Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lifi" ta'lim

yo'nalishi 3 kurs talabasi Temirov Sherzodning

MA'NAVIYAT VA MILLIY MENTALITET

Mavzusida yozgan referati

Tekshirdi:_____

Navoiy 2016

MA'NAVIYAT VA MILLIY MENTALITET

XXI asrning shiddatli taraqqiyot mantig‘i dunyo va jamiyatimizda tamoman o‘zgacha manzarani tarkib toptirmoqda. Ko‘z o‘ngimizda shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyo qator yangi sifatlarga ega bo‘ldi. Birinchidaq dunyoning hayot maromi, umr sur’ati tezlashib, jo‘shqin mazmun kasb eta boshladi. Ikkinchidan, bozor talablari xamma narsaga sergaklik bilan yondashish, hisob-kitobni qat’iy olib borish zaruratini kun tartibiga chiqardi. Uchinchidan, dunyo jarayonlari bilan doimiy hisoblashish atrof mamlakatlarda yuz berayotgan jamiki voqeа-hodisalarga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirish zaruratini muhim talablar darajasiga chiqardi. To‘rtinchidan, har bir siyosiy guruh, jamoa yoxud alohida insonning dunyo jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlari behad o‘sdi. Prezidentimiz I.A. Karimov inson omilini faollashtirishda uch asosiy tamoyil, ya’ni ma’naviyat, ma’rifat va odob-axloq omillarining favqulodda zarurligini alohida qayd etadi. Ayni chog‘da mazkur tamoyillarning **o‘zaro mutanosibligi, ichki uyg‘unligi, oqilona meyorlarda taqsimlanishi masalasi** ham muhim ahamiyatga egadir.

Yurtboshimiz mazkur tamoyillarning **uyg‘un mutanosiblikda amal qilishi fakat tizimiylar tartibotlar yuzaga** keltirilgan-dagina samara berishini ta’kidlaydilar. «Barchamiz yaxshi bilamizki, fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi ma’naviyat va ma’rifat sohasida, shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzlusiz ish olib borishdan iborat. Bu hayotiy haqiqat, biz hamisha amal qiladigan tamoyilga, jamiyat rivojining asosi va shartiga aylanmog‘i hamda o‘zida yaxlit bir tizimni mujassam etmog‘i lozim. Bu tizim markazida ma’naviyat, axloq-odob, ma’rifat kabi o‘lmas qadriyatlar turmog‘i kerak».

Shu boisdan ham O‘zbekistonda xalqimiz ma’naviy yaxlitligini saqlab qolish, o‘zlikdan chekinmaslik, sof insoniy fazilatlarga tayanib ish tutish asosida istiqbolga intilishdan iborat keng ko‘lamdagи ijtimoiy siyosat izchil yuritilmoqda.

Istiqlol yo‘lidan sobitqadam borayotgan yurtimizda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy va ma’rifiy tizimlarni jiddiy isloh qilishga kirishildi. Islohotlar

samaradorligi esa inson ongi va tafakkuridagi o‘zgarishlarga hamohang va bevosita bog‘liqdir. Shu boisdan ham yangilanayotgan davr talablari asosida inson omili va milliy mintalitetni faollashtirish, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, fuqarolarni mahalliy hokimiyat organlari orqali o‘zini o‘zi boshqarishga o‘rgatish, ijtimoiy faollikni keng rag‘batlantirish va shu yo‘l bilan fuqarolik jamiyatini barpo etish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Binobarin, endilikda davlat o‘z vazifalarini hokimiyatni kuchaytirish hisobiga emas, aksincha, demokratik omillarni kengay-tirish va keng xalq ommasini boshqaruvga jalb etish yo‘li bilan amalga oshirmoqda.

Ma’lumki, fuqarolarning tafakkuri, siyosiy saviyasi demok-ratik o‘zgarishlar sur’atlari bilan mos bo‘lsa, boshqaruvni demokratiyalashga zamin yaratiladi. Shuning uchun ham demokratik o‘zgarishlar hamda yangi demokratik jarayonni chiqurlashtirish va ularni hayotga tatbiq etishni eng avvalo jamiyatimizning o‘zi anglamog‘i va hal qilmog‘i darkor. Bu borada jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan mahallalarning o‘rni va o‘zini o‘zi boshqarish tartibini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston o‘z so‘zi, mustaqil yondashuvi, sobitqadam rivoj-lanish ruhi bilan alohida namoyon bo‘lmoqda. O‘tgan 20 yillik istiqlol yo‘limiz hayotimizni mohiyatan boshqacha mazmundagi dunyoga boshladи, turmush tarzimizni ilgari xalqimiz tarixiy, madaniy tajribasida ko‘rilmagan qayta qurishlar, tub o‘zgarishlar jarayoniga olib kirdi. Vatan, xalq, millat tushunchalaridan tortib inson, erk, vijdon, oriyat, oqibat, insof,adolat kabi qadriyatlargacha bo‘lgan barcha narsalar mazmuni o‘zining asl ma’nosini ifodalay boshladи. O‘zlikka qaytish harakati buyuk tarixiy jarayon tarzida amal qilmoqda.

O‘zgarishlar ruhi odamlarning hayotga bo‘lgan qarashlari, yondashuvlari, maqsad va rejalar, say-harakatlari mazmuni, ijtimoiy mo‘ljallarida ham o‘z ifodasini topmoqda. Bu narsa millatimiz vakillarining ijtimoiy harakatchanligi, ilmiy tilda aytganda, mobillik darajasining oshganligida ham ko‘rinadi.

Agar ilgari xorijda bo‘lib kelish odamlar uchun favqulodda bir hol sanalgan bo‘lsa, bugungi kunda chet elda ishslash, o‘qish, yashash odatiy bir voqeaga aylangani barchaga ayon. Bu esa mamlakatimizda demokratiya tartibotlari chuqr ildiz otayotganligi, erkin va ochiq jamiyatga aylanib barayotganligimizning yorqin ko‘rsatkichlaridir. Jamoatchilik fikri ilm olish, oliv o‘quv yurtlariga kirib o‘qish borasida yalpi ijtimoiyadolat o‘rnatilganini yurtimizda istiqlol yillarida erishilgan yana bir muhim qadriyat deb biladi. Darhaqiqat, bugungi kunda aniq belgilangan muayyan bilimlarni puxta o‘zlashtirgan har bir o‘g‘il-qiz o‘zi istagan oliv o‘quv yurtining eshiklari unga lang ochiq zkanligini yaxshi angraydi. Shu o‘rinda keyingi yillarda ta’lim muassasalari, xususan, universitetlar moddiy-texnik bazalarining mustahkamlanganligi, zamonaviy ta’lim vositalari, axborot texnologiyalari bilan xalqaro standartlar darajasida ta’minlanganligini kayd etish joizdir. Bugungi O‘zbekiston universitetlari sho‘rolar davrida amal qilib kelgan shunchaki oliv ma’lumot beruvchi muassasalar bo‘lib qolmasdan, balki mamlakatimizning ma’rifiy, ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutuvchi ilmiy, siyosiy va madaniy markazlar vazifasini ham bajarmoqda,

Jamoatchilik fikri mamlakatimizda istiqlol yillarida jamoat tashkilotlarining yangi mazmun va mohiyat kasb etganligini ham ifoda etmoqda. Darhaqiqat, demokratiya va inson huquqlari imkoniyatlarining kengayishi nodavlat jamoat tashkilotlari, partiyalar, turli xil ko‘ngilli uyushmalar roli va mavqeini oshirishi tabiiydir. Ana shunday holatlarda muayyan millat, mamlakat va hududning o‘ziga xos xususiyatlarini puxta hisobga olmasdan turib demokratiya tartibotlarining yalpi joriy etilishi turli xil boshboshoqliklar, millatchilik, mahalliychilik holatlari, ijtimoiy-siyosiy kataklizmlarga olib kelishi mumkin. Bunga misol qilib Efiopiya, Somali va boshqa davlatlarda yuz bergen qonli mojarolarni eslash o‘rinlidir. O‘zbekistonda esa demokratiya tartibotlari, ya’ni fuqarolar erkinligini ifodalovchi nodavlat tashkilotlar haq-huquqlarini kengaytirish borasida istiqlolningdastlabki yillaridanoq milliy-mahalliy xususiyatlarni puxta hisobga olib ish tutildi. Mamlakatimizda asrlar mobaynida oddiy odamlar haq-huquqlarining sinalgan himoyachisi vazifasini

o'tab kelayotgan an'anaviy, hududiy jamoat tashkiloti, ya'ni mahalla institutiga, uning imkoniyatlari ko'lami kengaytirilishiga jiddiy e'tibor berilib, bu masala davlat ahamiyati darajasiga ko'tarildi. Jamoatchilik tomonidan O'zbekistonda bugungi kunda mahalla instituti to'laqonli demokratik-gumanitar tashkilot sifatida e'tirof etilayotganligi ham beziz emas.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti Islom Karimov milliy tarbiya fenomeniga e'tibor qaratib, mentalitet o'zgarishlari baravj ketayotgan hozmrgi davrda xalqimiz butunligini tiklash, ma'naviy yaxlitligini ta'minlash, dili, tili va amali bir bo'lgan, o'zini barkamol inson sifatida anglagan shaxslarni tarkib toptirish vazifasini o'rtaqa qo'ydi.

Mamlakatimiz birinchi **yangi shaxs tarbiyasi omili mentalitet o'zgarishlari bilan chambarchas bog'liq hodisa ekanligiga** urg'u beradilar va hayot, voqelikning mentalitetni o'zgartirishi xususida alohida to'xtalib, bu holat masalaning bir jihatni ekanligini, ayni chog'da mentalitetning o'zi ham hayotni o'zgartirishga qodir kuch ekanligini ta'kidlaydi.

Milliy mentalitet fenomeni bo'linish emas, birlashishni, birdamlik va hamkorlikni taqozo etadi. Dunyoda hech bir natijaga aql-zakovatni, kuch-harakatni, vaqt va imkoniyatlarni bir nuqtaga jamlamasdan turib erishib bo'lmaydi. Birlashish butunlikka erishish, bunyodkorlik ishlarining debochasidir, chunki bunyodkorlikka intilish, bu yo'lda umumxalq safarbarligi holatini tarkib toptirish, eng muhim, fikr-qarashlar yakdilligini yuzaga keltirish, ruhiy birdamlik kayfiyatiga erishish muhimdir. Shu boisdan ham yurtboshimiz «Endi inkor qilish kayfiyatidan bunyodkorlik kayfiyatiga o'tish payti keldi»¹⁰, -deb beziz aytmagan edilar. Agar an'anaviy jamiyatda tovar, industrial jamiyatlarda pul barcha masalalarni hal qiluvchi asosiy vositalar rolini o'ynab kelgan bo'lsa, bugun biz yashayotgan postindustrial jamiyatda shaxs qadriyatini belgilovchi asosiy tamoyillar sifatida informatsion bazis, intellektual tayyorgarlik, bilim darajalari hal qiluvchi kuch tarzida maydonga chiqadi.

Shu boisdan ham yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan «Kuch - bilim va tafakkurda» shiori postindustrial jamiyatning shiddatkor, jo'shqin sur'ati

to‘lqinlarida odamlarimizning erkin suzishlari, bu jarayonlarda o‘zligini yo‘qotib qo‘ymasligi, aksincha, o‘z ovozi, so‘zi, fikri va salohiyatlari bilan faol uyg‘unlashuviga yo‘l ochuvchi bir mayoq vazifasini o‘taydi. O‘zgarayotgan ijtimoiy makon va zamon ruhida odamlarimizning doimiy faolligini ta’minlovchi qudratli kuch ham tafakkur omilidir. Ana shu ezgu maqsadlar rag‘bati mamlakatimizda ta’lim haqidagi qonun hamda

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining shu qadar talabchanlik, qunt va uzviylik bilan hayotga joriy etilayotganligini yana bir karra izohlab beradi.

Yangi davr talablariga xos milliy mentalitetning tarkibiy jihatlari va tamoyillari ichida markaziy o‘zak mavqeniadolat mezoni egallaydi. Adolatlilik ijtimoiy hayotimizning oiladan to mahalla, ishxonalardagi faoliyatlargacha bo‘lgan barcha bo‘g‘inlarida baravar amal qilmoqda. «Adolat, -deb alohida qayd etadi yurtboshimiz, - biz qurayotgan jamiyatning mezoni bo‘lishi darkor». ¹¹ Adolat bilan birga insof-diyonat, ezgulikka ishonch, shukronalik, fuqarolar rizoligi, qanoat singari fazilatlar bugungi kun insonlari uchun bosh sifatlar bo‘lib qoldi.

Insof-diyonat shaxsning muhim sifati bo‘lib, uning o‘z-o‘zini cheklay, chegaralay olish kuchini ifoda etadi. O‘z-o‘zini cheklay olish insonnyng irodasiga, tarbiyalanganlik darajasiga, aql-zakovatiga bevosita bog‘liqdir. Xalqimizning tarixiy-madaniy tajribasida insof-diyonatga erishish turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lib kelgan va uning yaqqol namunalarini yassaviylik, naqshbandiylik tariqatlarida ko‘rish mumkin.

Prezidentimiz milliy mentalitet omili davrning jo‘shqin ruhi, tez o‘zgarayotgan muhit ta’sirida zarar ko‘rmasligi -uchun uni bunday holatlardan saqlovchi kuch insoniylik ekanini asoslab beradi. Insoniylik mohiyati shaxs va jamiyatning barcha jihatlariga ruh bag‘ishlaydi, unga jonlilik, tiriklik, yaratuvchanlik ruhini singdirib turadi.

Insoniylik omilining real zohir bo‘lish belgilari esa komil shaxsga xos bo‘lgan fayz, tarovat, yuzi issiqlik, istara, o‘zi yonib boshqalarni ham yondira olish singari fazilatlardir. Ayni chog‘da ta’kidlash joizki, xalqimiz nazdida komillik tushunchasi rahbar siyosida ayniqsa yorqin namoyon bo‘ladi. Shu boisdan ham yurtboshimiz

komillikning eng avvalo yetakchilarda, rahbar shaxslarda yorqin ko‘rinishi zarurligiga urg‘u beradilar. Yurtboshimiz o‘zlarining qator asarlarida bu masalaga alohida to‘xtalib shunday degan edilar: «**Istarasi issiq degani, bu odamlarga ko‘ngli ochiq bo‘lish demakdir. YA’ni, rahbar juda ortiqcha sirli bo‘lmasligi, bag‘rikeng va kechirimli bo‘lishi lozim.** Va kerak bo‘lsa, meni kechirasizlar-u, ochiq aytishim kerak, u qandaydir fayzli bo‘lishi zarur. **Bu fikrga qo‘srimcha qilib shuni aytmoqchimanki, bugungi kunda rahbar** faqat o‘zi yonyab qolmay, unga ko‘z tikib, undan ko‘p narsani kutmb turgan **xalqni ham yondira olishi zarur. Men yondirish** deganda, avvalambor, **odamlarni birlashtirish, odamlarni boshqarishni,** ularni yuksak maqsadlar sari safarbar etishni nazarda tutaman»¹². Demak, yurtboshimiz asoslab bergan milliy mentalitet asosidagi komil shaxs konsepsiysi ikki muhim jihat, ya’ni bir **tomondan o‘zidagi insoniylik fazilatlarini amaliy faoliyatlarda qo’llay olish salohiyati bo‘lsa, ikkinchi tomondan odamlarni bunyodkorlik ishlariga safarbar eta olish qobiliyatlarini yuzaga chiqarish orqali namoyon bo‘ladi.** Yurtboshimiz milliy mentalitet asosidagi komil shaxs shunchaki ko‘p o‘qigan, ko‘p bilgan, ko‘p ko‘rgan yoki tajribasi katta odam ekanligi bilan cheklanmasdan, o‘zidagi bilim va tajribalar, insoniy fazilatlardan ezgulik, yaratuvchanlik yo‘lida foyda-lana oluvchi, voqelikni shunchaki bilish bilan cheklanib qolma-gan, balki hayot o‘zgarishlarini anglashga erishgan, nafsi jilovlab, meyorga keltira olgan, «**qanoat**», «**shukur**», «**tavba**» tushunchalariga mustahkam tayanib ish tutuvchi, o‘z manfaatini umum manfaatlari bilan muvofiqlashtira olgan, faol, harakatchan, tinib-tinchimas, o‘zi yonib, o‘zgalarni ham yondirguvchi shaxs ekan-ligiga urg‘u beradilar. Milliy mentalitet bilan qurollangan komillik pirovard natijada odamlarni birlashtirish, aholi turli qatlamlari vakillarini bunyodkorlik yo‘lida uyshtirish, ularni o‘zaro murosa, madora, ittifoqqa keltirish yo‘liga olib chiqadi.

Xullas, milliy mentalitetga asoslangan bugungi faol shaxs falsafasi yangilanayotgan borlig‘imiz ruhiga ayni muvofiq barkamol shaxs, har tomonlama rivojlangan inson, zukko, dono, yaratuvchan, bunyodkor, bag‘rikeng, saxovatli,

ochiq yuzli, istarali odamni tarkib toptirish vazifasini dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo‘yadi.

Milliy mentalitet vatanni sevish omiliga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. **Vatanni sevish, ulug‘ Navoiy ta’kidlaganidek, shu yurt odamlarini sevishdan boshlanadi.** Odamlarga bo‘lgan muhab-bat vatan sevgisining debochasi va o‘zagidir. Navoiy muhabbatni ikki jihat, ya’ni ilohiy ishq va majoziy ishqqa bo‘lib talqin qiladi hamda insonlarga bo‘lgan mehr-oqibat, hurmat, sadoqatdan iborat ko‘ngil bog‘liqligi, ya’ni majoziy muhabbat uning taqdirida ustunroq ekanligini o‘z asarlarida takror-takror qayd etadi. Chin

vatanparvarlik haqiqiy insonlik, insonga muhabbat, unga himoyachi, fidoyi, kerakli bo‘lishdir. Odamlarni sevish va vatan sevgisi o‘zaro uyg‘un, chatishgan mohiyat kasb etganligi bois vatanga muhabbat tuyg‘usini tarkib toptirish dastavval shaxsning o‘z-o‘ziga bo‘lgan mas’uliyati, talabchanligi, o‘zidan qoniqmasligi, o‘z-o‘zini doimiy taftish va nazorat qilishidan boshlanadi. Shu narsani e’tirof etish kerakki, xalqimizda insonni jamoatchilik fikri nuqtai nazaridan baholash, ijtimoiy nazorat qilib borish jihatlari yaxshi rivojlangan.

Mamlakatimiz birinchi Prezidenti «Fidokor» gazetasiga bergan intervyusida haqiqatni topish uchun qarama-qarshi fikrlarni o‘rtaga tashlash zarurligini ilgari suradi. Yurtboshimiz **«Talabalar, ziyoli yoshlарimizning o‘zi kerakli xulosani chiqarib olsin. Mana, misol uchun Freydning nazariy qarashlari, pragmatizm va ekzistensializm g‘oyalari, Berdyayev va boshqalarning falsa-fasidan o‘rgansak, foydadan xoli bo‘lmaydi. Biz ko‘p masa-lalarda g‘arb faylasuflarining fikrlari bilan, ayniqsa, individualizm, egoizm qarashlarini ilohiylashtirish bilan kelishmasligimiz mumkin. Lekin ularni xisobga olishimiz, keraklisini e’tirof, keraksizini inkor etishimiz zarur»**, - deb uqtirganlari nechog‘li haqiqat ekanligini hayot tasdiqlamoqda.

Xullas, buyuk kelajak taqdiri, ozod va obod jamiyat qurilishi o‘zimizning qo‘limizda ekanligi, bu maqsad barchamizning ma’naviy o‘lchovimiz, shaxsiy va ijtimoiy mo‘ljalimizga aylanishi bugungi kun taqozosidir. Darhaqiqat, Prezident Islom Karimov o‘zining Birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisining o'n to'rtinchi sessiyasidagi ma'rzasida alohida qayd etganlaridek, «**mamlakatimizning tarixiy va milliy xususiyatlarini, xalqimiz tabiatini, mentalitetini inobatga oluvchi rivojlanishning mazkur yo'li biz uchun nihoyatda maqbuldir».¹³**

Shunday qilib, istiqlol yillarida mamlakatimizda amalga oshirilgan ulug' bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimiz tafak-kur tarzi o'zgarib, uning mentalitetida quyidagi xususiyatlar tarkib topdi:

Aholi turli qatlamlarida, xususan, qishloq aholisi orasida bozor iqtisodiyoti tamoyillarsni tadrijiy o'zlashtirish asosida mulkka egalik xususiyati shakllantirildi. Mulkdorlik mas'uliya-tini anglash esa odamlar tabiatida sho'rolar davrida mudroq bo'lib yotgan saxovatpeshalik, hotamtoylilik, muruvvatlilik, bag'rikenglik fazilatlarining qayta uyg'onishiga, **mulknasi rash, ko'paytirish va boyitish harakati esa vatan kuchi, qudratini oshirish, vatanparvarlik tuyg'usi bilan uyg'unlashuviga** olib keldi.

Istiqlol yillarida odamlarda **o'z-o'zini oxlokratik, ya'ni to'da, olomon a'zosi sifatida emas, mustaqil shaxs sifatida anglash tendensiyasi tarkib** topdi. Mustaqil shaxs sifatida anglash tuyg'usi esa kishilarimizda hayotga **pragmatik** yondashish, o'z taqdirini o'zi yaratish, o'z baxti va kelajagi uchun kurashish xususiyatining rivojlanishiga turtki berdi.

Mustaqillik yillarida odamlarda shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini uyg'un anglashdan iborat, milliy tariximizda ilgari bo'lмагan yondashuvning shakllanishiga erishildi. O'z manfaatining davlat va jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashuvi odamlarda ijtimoiy voqelikni **individual, mintaqaviy anglashdan korporativ anglash darajasida tafakkur yuritish**, turmush tarzini tashkil etish imkonini berdi.

Istiqlol yillarida qonunlar ustuvorligini ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Natijada **xalqimiz tabiati, fe'l-atvori, turmush tarzida qonunlarga itoat, amaldagi tartib-qoidalarga hurmat qadriyati** tarkib toptirildi. Bu esa mamlakatimizda jinoiy xatti-harakatlarni qasddan sodir etish, axloq buzilishi, narkotik moddalarni iste'mol qilish singari illatlarning sezilarli

darajada kamayishi, kundalik turmushimiz osoyishtaligi va barqarorligi ta'minlanishiga olib keldi.

Xalqimiz tabiatida tarixga hurmat, ajdodlarimiz merosiga ehtirom, ularning boy ma'naviy mulkini e'zozlash xususiyati, o'ziga xos an'analari tarkib toptirildi. Vatanimizning o'nlab allomalari, faxr-iftixorimiz bo'lgan ulug' ajdodlarimiz ruhini e'zozlab ulkan obidalar, memorial koshonalar, haykallar barpo etildi, maxsus anjumanlar o'tkazilishi, bag'ishlov kitoblari nashr etilishi yo'lga qo'yildi. Bu esa aholining, xususan, yoshlarning chin vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish imkonini kengaytirdi.

Mustaqillik yillarida odamlarimizning **hayotga ratsional, ya'ni aql ko'zi bilan qarash, har bir ishda meyorga rioya qilish fazilati tarkib toptirildi**. Bu esa biror bir faoliyatda, xususan, boshqaruvida mensimaslik, boshqalarning fikrini nazar-pisand qilmaslik, oyog'i yerdan uzilish singari illatlarning sezilarli darajada kamayishiga olib keldi. Odamlarda yaxshidan ibrat, yomondan saboq chiqarish fazilati kuchaydi.

Istiqlol yillarida jamiyatda **ayollarga pozitiv munosabat tizimi tarkib toptirildi**. Natijada ayollarning ijtimoiy mavqeiga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib, ularning jamiyatdagi haq-huquqlari to'la ruyobga chiqishiga erishildi.

Istiqlol yillarida oilaga bo'lgan munosabat ilk daf'a davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilandi. Oila omili asosiy Qonunimiz va boshqa meyoriy hujjatlarda qayd etilib, uning milliy o'zligimizning beshigi va asl qadriyati ekanligi huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Bu esa oilada o'zaro totuvlik, ittifoq, hurmat va muhabbatni har tomonlama kuchaytirish imkonini berdi.

Istiqlol yillarida shaxsning o'z-o'ziga bo'lgan munosabati tizimi ham o'zgardi. Odamlarda **o'z-o'zini hayotda qadrlay bi-lish, ijtimoiy muhitda munosib o'rnini topish fazilatlari shakllantirildi**. Bu esa o'ziga sodiq, o'zini qadrlovchi insonning boshqalarga xiyonat qilmasligi, o'zgalarga ham xuddi o'zidek qarash xusueiyati umumjamiyat ko'lamida keng yoyilishig'a olib kelmoqda.

Istiqlol yillarida ta'lim tizimi isloh etilib, ma'rifiy yuksalishning tamomila yangi konsepsiysi hayotga joriy etildi. Ma'rifiy yuksalishning mazkur dasturi

jamiyatning barcha a'zolariga intellektual taraqqiyot uchun keng imkoniyatlar eshik-larini ochib berdi. Bu esa **jamiyatda ma'rifiy taraqqiyot borasida pozitiv «portlash effekti» yuzaga chiqishiga imkon yaratdi**, minglab yoshlarimizning xalqaro ko'rik-tanlovlari g'olib-lari, intellektual olimpiadalar championlari, ilg'or g'arb universitetlarining nomdor stipendiatlari bo'lishlariga olib keldi.